

**O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH
VA MAVJUD MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH**

*Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at
maktabi "Xor dirijyorligi" bo'limi
o'qituvchisi **Karimov Faxriddin**
Tel: +998906346172*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimizdagi xor san'atini tutgan o'rni hamda bu ko'hna san'at turini diyorimiz bo'ylab yangi bosqichga olib chiqishda qo'llaniladigan chora tadbirlar va mavjud muammolarni bartaraf etishda butun Resublikadagi xor rahbarlariga yuklatilayotgan katta ma'suliyat, xor janrini yangi bosqichga olib chiqishdagi harakatlarni amalga oshirishga doir masalalar ko'tarilgan.

Kalit so'zlar: xor, muammolar, xor ijrochiligi, malaka oshirish, ijodiy, xor sinfi, bulbulcha.

Bugungi kunda davlatimiz raxbariyati tomonidan yoshlarga xususan yosh kadrlarni xar tamonlama yetuk, o'z bilm va mahoratiga ishongan, yuksak malakali bilimdon, o'z ustida doim tinimsiz ishlaydigan, bir so'z bilan aytganda Yangi O'zbekistonga mos mutahassislar bo'lib yetishishiga juda katta e'tibor ko'rsatib kelinmoqda. Yangi O'zbekiston yoshlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Muhtaram yurtboshimizning ta'limning barcha yo'nalishlariga birdek katta e'tibor qaratayotganliklari yoshlarimizga o'z kasbini yetuk mutahassisi bo'lishdek ulkan ma'suliyat yuklamoqda.

Xor san'ati tarixi. Xor yunoncha "xorus"-"yig'ilish" ma'nosini bildiradi. Qadimiy yunon teatr spektakllarida qatnashuvchi ashulachilar, o'yinchilar guruhi "xorvetlar" nomi bilan yuritilgan. Xor ijodiy uyushgan jamoa bo'lib, ma'lum ovozga ega bo'lgan ijrochi xonandalardan tashkil topadi. Xor deb maxsus tashkil qilingan, vokal-xor texnikasiga, badiiy-ifoda vositalariga ega bo'lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan jamoaga aytiladi.

Uyg'onish davrida ko'p ovozli musiqa yaratgan kompazitorlar D. Palestrina, O. Lasso, K. Janeken, J. Deprelar xor san'atining a'capella (jo'rsiz ijro) uslubini yanada rivojlantirdilar. Keyingi davrda I.S.Bax, G. F. Gendel, F. I. Gaydn, V.A. Motsart, L.V. Betxoven, romantik kompozitorlardan F. Shubert, R. Shuman, F. Mendelson, J. Verdi, J. Bize, rus kompozitorlaridan M. I. Glinka, N.A. Rimskiy-Korsakov, M.P. Musorgskiy, P.I. Chaykovskiy, A.P. Borodin, S.A. Kyui, S.I. Taneev va boshqalar o'z ijodlari bilan xor san'atini yanada yuqori pog'onaga ko'tardilar.

O'zbekistonda havaskorlik xor san'atini rivojlanishida o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shgan xor targ'ibotchilari Ali Ardobus, V.Sakovich, H.H.Niyoziy, Sh.Shoumarov keyinchalik esa bu san'at turini professional darajada rivojlanishida kompozitorlar M.Ashrafiy, M.Burhonov, S.Yudakov, R.Gliyer, V.Uspenskiy, T.Sodiqov hamda kompozitor-xormeyster B.Umidjonov, bolalar xor san'atini rivojiga katta hissa qo'shgan Sh.Yormatovlar, shuningdek hozirda bu san'at turi uchun jozibali asarlar bastalayotgan kompozitorlar M.Bafojev, A.Mansurov, D.Omonullayeva, N.Norxo'jayev, N.Sharafiyeva, X.Hasanova va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

Muxtaram yurtboshimizni yosh avlodga ko'rsatayotgan g'amxorliklari samarasi o'laroq bugungi kunda yurtimizda har-bir sohani keng miqiyosida rivojlanayotgani ayniqsa musiqa san'atining har qachongidan ko'ra odimlab, yanada ko'proq yoshlarni o'z qamroviga olib borayotgani juda quvonarli hol albatta. San'at turlari ichida o'zining qadimiy tarixga egaligi hamda butun bir millatni yagona g'oyaga birlashtira olishi bilan diqqatga sazovor bo'lgan xor san'ati bugungi o'zbek yoshlarining eng sevib, qatnashayotgan yirik san'at turlaridan desak, mubolag'a ishlatmagan bo'lamiz. Sababi bu san'at turi xozirgi kunda yurtimizning xar-bir viloyat, shaxar va tumanlarida juda ham odimlik bilan bo'y cho'zmoqda. Bunga misol tariqasida Respublikamizdagi barcha bolalar musiqa va san'at maktablaridagi "xor sinfi" dars majg'ulotlaridagi xor rahbarlarining jonbozliklari albatta taqsiqsa sazovordir. Har qanday sohani poydevorini albatta yoshlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, diyorimizda bolalar xor san'atini shu davrgacha jadal rivojlanishida o'zlarining fidoiy mehnatlari bilan bu san'at tarixida o'chmas iz qoldirgan ustozimiz Shermet Yormatovni tilga olmaslikni iloji yo'q. Ustoz xor san'atiga o'zlarini bebaho umrlarini fido ayladilar. Bu mehnatlarning natijasini bugungi kunda poytaxtimizdagi "bulbulcha" ashula va raqs ansamli misolida ko'rishimiz mumkin. Bir necha yillardan beri xor san'atini butun o'rta osiyoga tarqalishida bu jamoani hissasi bebihoya kattadir. Maqola sarlovhasida urg'u berib o'tilgan mavzuga diqqatingizni qaratmoqchiman. Ha xor san'ati yurtimizda yildan-yilga tamoshabinlar diqqat markaziga kirib bormoqda, har qaysi soha kamchiliklardan holi bo'lmaganidek, bugungi kunda xor san'atida ham qilinish kerak bo'lgan katta islohatlar o'z islohotchisini kutmoqda. Men sizni e'tiboringizni bolalar musiqa va san'at maktabiga qaratmoqchiman. Chunki xor san'atini professional darajada ommalashishida bu dargohning imkoniyat doirasi juda keng. Masalani tub mohiyatiga ahamiyatimizni qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan ixtisoslashtirilgan san'at maktablardagi "Xor dirijyorligi" bo'limini aynan musiqa maktabini turli cholg'u sozida tamomlab kelayotgan yoshlar tashkil qiladi. Masalani aynan muammoli nuqtasi ham aynan shundaki, bolalar musiqa maktablardagi barcha yo'nalishlarni bugungi kunda barcha ixtisoslashtirilgan san'at maktablarda uchratishingiz mumkin faqat "xor xonanda"laridan tashqari. Xor san'tini

o'ziga xos murakkab san'at turi ekanligini inobatga olsak, bugungi kunda bu san'at turini yanada keng miqiyosida rivojlanishida aynan bolalar musiqa va san'at maktablarida "Xor dirijyorligi" bo'limining yo'qligi achinarli hol albatta. Faqat poytaxtdagi nufuzli Glier hamda Uspenskiy nomidagi o'quv dargohlariga borib ta'lim olish uchun hamma yoshlarimizning ham imkoniyatlari yetarli emas. Shu san'at turini aynan o'z qishlog'idagi bolalar musiqa va san'at maktabida o'zlashtirib, kelajakda ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida va oliy dargohlarda mustahkamlamoqchi bo'lgan yoshlarimiz talaygina. Meni bugungi kundagi lavozimimdan kelib chiqib, huzurimga aynan "Havaskorlik xor jamoasi dirijyori" bo'limiga o'qishga xujjat topshirmoqchi bo'lib, kelayotgan yoshlarimiz bilan suhbatlashganda shu ma'lum bo'lmoqdaki, yoshlarimizni kelajakda xor san'atini davom ettirib ketishliklari uchun kerak bo'lgan dastlabki bilimlarni aynan bolalar musiqa va san'at maktablarida "Xor dirijyorligi" bo'limini tashkil etish orqaligina erishish mumkinligini anglaymiz. Bu sohani bugungi kundagi dolzarb muammolaridan yana biri kadrlar masalasidir. Xozirgi kunda xor san'ati bilan mexnat faoliyatlarini olib borayotgan ustozlarimizni malakalarini ayniqsa yosh kadrlarni saviyalarini oshirish maqsadida juda ko'plab tashkil masalalarni ko'rib chiqish lozim. Misol tariqasida xar besh yilda o'tkazilyotgan "malaka oshirish" kurslar ming afsuski talab darajasida emas.

Ustozlarni bir oy davomida ko'proq amaliy mashg'ulotlar bilan poytaxtdagi bir qator o'quv muassalariga borib tajriba va malaka oshirishlarini tashkillash lozim. Xozirda faqat so'nggi xaftada ko'pi bilan uch-to'rt kunni tashkil etayotgan bu kurslar tabiiyki o'zini natijasini to'liq ko'rsata olmayapti. Xor san'atini yurtimizda yanada takomillashtirish, uni boyitish uchun xar-bir viloyatda, so'ng esa viloyatlarda ilg'or qatnashgan xor jamoalarini xar ikki yilda yaxshi bir shior ostida hoh featural hoh ko'rik tanlov shaklida birlashtirish menimcha eng katta masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizda san'atning deyarli barcha turlari bo'yicha turli ko'rinishdagi Respublika miqiyosidagi ko'rik tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda. Ming afsuslar bo'lsinki, aynan "xor san'atiga doir xech qanday ko'rik tanlov yo'qligi kishini mayus qiladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, xor san'at turi bevosita solfedjio fani va fortepiano cholg'u sozi bilan uzviy bog'liqdir. Xozirda shu san'at turi bilan shug'ullanayotgan yoshlarimizda aynan yuqorida sanab o'tgan solfedjio fani va fortepiano cholg'u sozi bilan bog'liq bir qator muammolar ko'zga kaftak ko'rinib ham ulgurdi, bunga sabab qilib bolalar musiqa va san'at maktablarida solfedjio fani va fortepiano cholg'u sozini o'rgatishdagi mavjud metodik muammolarni takidlash o'rinlidir. Xozirda fortepiano cholg'u sozini tamomlagan o'quvchilarning no'ta o'qish malakalari past darajada bu esa o'z o'rnida "xor rahbari"ga qo'yiladigan no'ta o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda yo'ldagi katta bir to'siq sifatida qarashimiz mumkin bo'ladi. Solfedjio fanisiz "xor sinfi" fanini tasavvur etib bo'lmasligi hammangizga ma'lum, xozirda bu fanga bo'lgan

munosabat yoshlarimiz orasida ham, va ba'zi qo'shtirnoq ichidagi solfedjio fani ustozlarida ham havas qilarlik darajada emasligi kishini ranjitmasdan qolmaydi. Axir qanday qilib, no'ta o'qish malakasini yaxshi rivojlantirmasdan turib, "xor sinfi" fanini yoshlarga o'rgatishlik mumkin. Xor rahbari fortepiano cholg'u sozini xor majg'ulotlari orqali samarali foydalana olmasligi ham anchagina achinarli holdir. Yuqorida sanalgan holatlarni bartaraf etish orqali yurtimizda xor san'atini professional darajada ommalashishiga va rivojlanishiga erishishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Ro'ziyev "Xorshunoslik" Toshkent 1987
2. B. V. Shamahmudova "Xor fanlari o'qitish uslubiyoti" Toshkent 2016
3. www.ziyo.net